

Gospital Ta'limda Ona Tili Fanini O'Qitishning Samarali Usullari

Gafurova Muxayyo Mamirovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'limda ona tili darslarini tashkil etishning samarali usullari yoritilgan. O'quvchilarning sog'lig'i va ruhiy holatini inobatga olgan holda individual yondashuv, interaktiv va ijodiy usullardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Gospital sharoitida ona tili fanini o'qitishda motivatsiyani oshiruvchi o'yinlar hamda qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada o'qituvchilar uchun samarali tavsiyalar berilib, bunday darslarning nafaqat ta'limiy, balki davolovchi ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Gospital ta'lim va uning xususiyatlari, ona tili fani, samarali ta'lim usullari, "Sharadalar", "Sarlavha top", "Infografika" metodlari.

Gospital ta'lim — bu uzoq muddatli davolanish jarayonida bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus ta'lim shakli bo'lib, u o'quvchilarni ta'lim jarayonidan uzilib qolmasligini ta'minlash bilan birga, ularning ruhiy va ijtimoiy holatini qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Bu ta'lim turining asosiy maqsadi sog'liqni tiklash va ta'limni uzviy davom ettirishni birlashtirishdir.

Gospital ta'lim quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Individual yondashuv. Har bir o'quvchining sog'lig'i, yosh xususiyatlari, kasallik holati va ta'limga bo'lgan qiziqishini inobatga olgan holda shaxsiy ta'lim rejasi tuziladi.
2. Moslashuvchan jadval. O'quvchilar uchun darslar qisqa va moslashuvchan shaklda tashkil etiladi, chunki ular tibbiy muolajalar va dam olish vaqtiga moslashtirilgan bo'lishi kerak.
3. Psixologik qo'llab-quvvatlash. O'quvchilarning psixologik holatini qo'llab-quvvatlash gospital ta'limning muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiruvchi faoliyatlar o'tkaziladi.
4. Ota-onalari va shifokorlar bilan hamkorlik. Pedagoglar o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ularning ota-onalari va shifokorlari bilan hamkorlikda ishlaydilar. Bu o'quvchilarning umumiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda juda muhimdir.

Ona tili fani shaxsning ma'nnaviy kamoloti va madaniyati shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, gospital ta'lim sharoitida ona tilini o'qitish o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini davom ettirishda, balki ularda ruhiy tiklanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Kasallik tufayli uzoq muddat davolanishda bo'lgan bolalarda muloqot qilish, o'z fikrlarini bayon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ona tili darslari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila oladigan, nutq va muloqot madaniyati shakllangan, adabiy til me'yorlariga amal qiladigan, ona tilining keng imkoniyatlaridan samarali foydalana oladigan, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi, XXI asr ko'nikmalariga ega savodxon shaxsni kamol toptirishdan iboratdir.

Gospital ta'limda tashkil etiladigan ona tili darslariga 4K yo'nalishini tatbiq etish ona tili fani o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishining asosiy omillaridan biridir.

4K yo'nalishi – zamonaviy ta'limning asosiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, Kritik fikrlash (Critical Thinking), Kommunikatsiya (Communication), Hamkorlik (Collaboration) va Kreativlik (Creativity)

¹ Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi Andijon viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi)



ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Gospital ta’limda ushbu yo‘nalishning ona tili darslarida qo‘llanilishi o‘quvchilarini nafaqat tilni o‘rganishga, balki hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham tayyorlaydi.

Gospital ta’limda 4K yo‘nalishining ahamiyati:

1. Kritik fikrlash (Taqnidiy fikrlash). Ona tili darslarida matnlar, topishmoqlar va so‘zlarning ma’nosini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

2. Kommunikatsiya (Muloqot). Gospital ta’limda o‘quvchilarning boshqa odamlar bilan cheklangan muloqoti mavjud. Ona tili darslarida suhbat va muhokamalar tashkil qilish, insho va matn yozish orqali o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. To‘g‘ri so‘zlash va yozishni o‘rganish orqali o‘quvchilar muloqotda aniq ifoda topishga o‘rganadilar, bu esa reabilitatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

3. Hamkorlik (Kollektiv ishslash). Guruhda kichik loyihibar yaratish yoki rolli o‘yinlarda qatnashish orqali o‘quvchilarning hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlanadi. Gospital sharoitida bu ijtimoiylashuv va jamoaviy ruhni saqlab qolish uchun muhimdir. Hamkorlik mashqlari orqali o‘quvchilar o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va hamdardlik tuyg‘ularini rivojlantiradilar. Guruh ishlari ularning mas’uliyatini oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

4. Kreativlik (Ijodkorlik). She’rlar yozish, yangi so‘zlar yaratish yoki hikoya tuzish kabi topshiriqlar ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. Matn va hikoya yozish mashqlari o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ijodiy tarzda ifodalash imkonini beradi, bu esa stressni kamaytiradi va ruhiy farovonlikni oshiradi.

Shunday qilib, 4K modeli gospital sharoitida ham ta’limni samarali va mazmunli qilishning eng muhim strategiyalaridan biri hisoblanadi.

Quyida gospital ta’limning ona tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan, 4K yo‘nalishining barcha ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metodlar haqida bayon qilingan.

“Sharadalar” metodi. Sharada fransuzcha “charade” – “suhbat” so‘zidan olingan bo‘lib, she’riy topishmoqlarning bir turidir. Sharadada ma’lum bir so‘z bo‘g‘inlarga ajratiladi va ularga jumboqli ta’rif beriladi.

“Sharadalar” metodi gospital ta’lim uchun yengil va qiziqarli mashg‘ulot bo‘lib, o‘quvchining jismoniy holatiga qarab, faollik darajasini moslashtiradi. Bu esa ularni davolanish jarayonidagi stressdan chalg‘itadi. Topishmoq yechish jarayonida muvaffaqiyatga erishish, ular o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va jumlalarni to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmalarini oshiradi. O‘quvchilarning bir-biri bilan muloqotga kirishishiga yordam beradi, bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilaydi. Topishmoq yechish uchun o‘quvchi tez va aniq mulohaza yuritishi kerak, bu esa mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Har bir o‘quvchining qiziqishi va tayyorgarligiga qarab sharadalarni tanlash oson, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Sharadalarni tushunish va yechish diqqatni jamlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Har bir sharada so‘zlar va ularning bo‘g‘inlarini eslab qolishni talab qilgani uchun o‘quvchilar xotirasini yaxshilaydi. Nutqiy qobiliyatlarida qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar uchun qo‘srimcha mashq sifatida xizmat qilishi mumkin.

Quyida sharadalardan bir nechta namunalar keltirilgan:



Mazali mevaman, ajoyib ne`mat,
Ikkinchı bo'g'inida qieqqa bir fureat.
Teskari o'qilsa ikkinchi bo'g'in –
Qotgan suv va yana sovuq harorat.



U — Z U M

Samimiy kulgiga doimo tayyor,
Birinchi bo'g'inida ma'nosi ayyor.
Teskari o'qilsa ikkinchi bo'g'in –
Hayot quvurida oquvchi sayyor.

Sayyor – kezib yuruvchi

Q U V — N O Q



Idish-tovoqlarning kerakli qismi
Ikkiga ajratsak bu ashyo ismin:
Biri – xalta degan buyumda zohir,
Ikkinchisi qurib qaqshashga doir.



Zohir – sirt, tashqi ko'rinish

Q O P — Q O Q





“Sarlavha top” o‘yini

Bola 3 ta apelsin sotib oldi. Birinchisini kesdi. Aynigan chiqdi. Tashlab yubordi. Ikkinchisini kesdi. U ham chirigan ekan, tashladi.

So‘ngra u uchinchi apelsinga qaradi va o‘yladi:

- Har safar ham omad kelmasligi mumkin, lekin sinab ko‘rmasam, hech qachon bilmayman.

U uchinchi apelsinni kesdi. Apelsinning ichi sariq, mazasi shirindan-shakar bo‘lib chiqdi. Bola tabassum qildi va zavq bilan uni yedi.

“Sarlavha top” metodi o‘quvchilarning dars jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantiradi. O‘quvchilarning dunyoqarashi va tafakkurini boyitib, hozirjavoblik va kuzatuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Teran fikrlab, mustaqil ravishda muammoga yechim topa olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Apelsinlar haqidagi matn orqali gospital ta’lim o‘quvchisiga nimani o‘rgatadi?

1. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rmaslik.

Birinchi va ikkinchi apelsin kutilganidek emas, ammo bola har safar yangi imkoniyatni sinab ko‘rishni davom ettiradi. Gospitalda davolanayotgan o‘quvchilar sog‘ayish yo‘lida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ba’zi davolash jarayonlari darhol natija bermasligi yoki rejalashtirilgan ishlar kutilgandek bo‘lmasligi tabiiy. Ushbu hikoya ularga taslim bo‘lmaslik va har safar yangi imkoniyatni sinab ko‘rish kerakligini o‘rgatadi.

2. Sabr va ishonch.

Bola uchinchi apelsinni kesishga kelganda ham umidini yo‘qotmaydi va oxir-oqibat yaxshi natijaga erishadi. Bu ularga sabr qilish va jarayonlarga ishonish muhimligini ko‘rsatadi. Ba’zan sog‘ayish yoki o‘rganish vaqtini kutilganidan ko‘proq davom etishi mumkin, lekin harakatlar albatta o‘z samarasini beradi.

3. Umidni saqlab qolish va ijobiy fikrlash.


Bola dastlabki ikki apelsinni ochganida yomon natijaga duch kelgan bo‘lsa-da, u uchinchisini sinashga qaror qiladi. Bu qahramonning misoli orqali o‘quvchilarga hayotda har doim umid va ijobiy fikrlash muhimligi ko‘rsatiladi. Gospitaldagi o‘quvchilar ham sog‘ayish va o‘rganish jarayonida umidini yo‘qotmasliklari kerak.

4. Moslashuvchanlik va yangi yechimlar qidirish.

Bolaning qarorlari moslashuvchanlikni aks ettiradi. Vaqtı-vaqtı bilan duch kelgan qiyinchiliklardan cho‘kmay, yangi imkoniyatlarni izlash kerakligini ko‘rsatadi. Gospitaldagi o‘quvchilar ham sog‘ayish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo bu matn ularga moslashishni va yechim topishni o‘rgatadi.



“Infografika”



“Infografika” metodi. Infografika lotincha “information” so‘zidan olingan bo‘lib, “ma’lumot beruvchi grafik dizayn” degan ma’noni bildiradi.

“**Infografika**” metodida yo‘nalish ko‘rsatkich belgisi bo‘ylab ketma-ket ravishda rasmlar namoyish etiladi. O‘quvchilar esa taqdim qilingan rasmlarga mos gap tuzadilar. Har bir o‘quvchi gap tuzayotganda o‘zidan oldingi o‘quvchining fikrini mantiqan davom ettirishi lozim.

Bunday infografikaga asoslangan metodik yondashuv gospital ta’lim o‘quvchilarida diqqat va tasavvurni kengaytirishga, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga, motivatsiya va qiziqishni oshirishga, stressni kamaytirishga xizmat qiladi, chunki rasmlarni bog‘lash orqali o‘quvchilar turli hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunib, ijodkorlik bilan ishlaydilar. Bu esa tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga rasmlı hikoya tuzdirish orqali ularning og‘zaki va yozma ifoda qilish qobiliyatları oshadi. Rang-barang tasvirlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarga vizual va ijodiy mashg‘ulotlar berish ularning ruhiy holatini yaxshilaydi va davolash jarayonini yengillashtiradi.

Bunday metodik yondashuv gospital ta’lim o‘quvchilari uchun nafaqat qiziqarli, balki ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Gospital ta’lim sharoitida ona tili fanini o‘qitish o‘quvchilarning sog‘lig‘ini inobatga olgan holda individual yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda samarali o‘qitish usullaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishini oshirish va ularning psixologik hamda intellektual rivojlanishiga ko‘mak beradi.

Eng avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali har bir o‘quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos metodlarni qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, darslarda multimedia texnologiyalaridan foydalanish, vizual materiallar va audio yozuvlarni qo‘sish o‘quvchilarga mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Gospital sharoitida o‘qitishning o‘ziga xosligi o‘quvchilarning jismoniy va psixologik holatlarini hisobga olish zarurligidir. Darslar o‘quvchilarga ortiqcha ruhiy va jismoniy yuklama bermasligi kerak. Shu sababli, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan yaqin aloqada bo‘lishi, ularning hissiy holatini kuzatib borishi va qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bu jarayonda tarbiyaviy komponentni kuchaytirish, o‘quvchilarga ijobiy kayfiyatni singdirish, ijodiy faoliyatga undash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan usullar gospital sharoitida sifatlari va samarali ta’limni ta’minlash imkonini beradi hamda o‘quvchilarni muvaffaqiyatli o‘qish jarayoniga jalb etadi. Gospital ta’limning ona tili darslarida

qo‘llash uchun tavsiya qilinayotgan metodlardan foydalanishda qat’iy chegara mavjud bo‘lmay, bu metodlarni barcha sinflarda o‘tiladigan mavzularda o‘quvchining bilim darajasiga qarab moslashtirib, ham guruh darslarida, ham individual dars mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin. Keltirilgan metodlar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqining oshishiga katta turtki bo‘ladi. Ayniqsa, ularning o‘z kasallik holatlarini unutib, hayotga bo‘lgan intilishining oshishiga, dunyoqarashining kengayishiga, bu orqali har bir sodir bo‘lgan voqelikning yaxshi tomonini ko‘ra olish va to‘g‘ri xulosa chiqarishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolada ta’kidlanganidek, ona tili fanini o‘qitishda ijodkorlik va moslashuvchanlik ko‘rsatgan holda, samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va qo‘llash pedagoglar uchun dolzarb vazifadir. Bu nafaqat o‘quvchilarning ona tili bilimlarini rivojlantirish, balki ularning ma’naviy va intellektual kamolotiga xizmat qiladi. Shu sababli, innovations yondashuvlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish gospital ta’lim sharoitida o‘z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сергей Владимирович Шариков “Госпитальная педагогика: от проектной идеи до сети школ в России”
2. B.H.O‘razov “Gospital pedagogikaning maqsad va vazifalari” Nukus.2024
3. Xidoyatova D.A. “O‘zbek tilini o‘qitishda samarali ta’lim jarayonni tashkil etishdagi muhim aspektlar” 2023
4. Hamroyev A.R., Po‘lotova Y.A. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. 2021
5. Namozova Gulbahor “Ona tili o‘qitish metodikasining ilmiy asoslari” Toshkent. 2023

